

Oila va maktab hamkorligi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi omil sifatida

Dilshoda Mansurali-qizi Boymirzayeva
boymirzaevadilshoda@icloud.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila va maktab hamkorligining bolalarning ijtimoiy moslashuvi jarayonidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oilaviy tarbiya, maktab muhiti va ularning integratsion ta'siri orqali bola shaxsining kommunikativ, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalari shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, hamkorlikning samarali shakllari, zamonaviy yondashuvlar hamda mavjud muammolar ko'rib chiqilib, ijtimoiy moslashuvga ta'sir etuvchi omillar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: oila, maktab, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv, tarbiya, kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik hamkorlik, ijtimoiylashuv, emotsional barqarorlik

Family and school cooperation as a factor ensuring the social adaptation of children

Dilshoda Mansurali-kizi Boymirzayeva
boymirzaevadilshoda@icloud.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the role of cooperation between family and school in shaping children's social adaptation. It analyzes the impact of family upbringing and the school environment on the development of children's communicative, emotional, and social competencies. The study highlights effective forms of interaction, modern approaches, and existing challenges within the family-school partnership, explaining the key factors influencing successful social adjustment.

Keywords: school, cooperation, social adaptation, upbringing, communication skills, pedagogical interaction, socialization, emotional stability

Kirish

Zamonaviy jamiyat sharoitida yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, ijtimoiy jarayonlarga faol qo'shila olishi va ijtimoiy muhitga moslashgan holda

yashashi muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa sifatida ko'rilmoqda. Bola shaxsining ijtimoiylashuvi uzviy jarayon bo'lib, uning poydevori avvalo oilada yaratiladi, maktab esa bu jarayonning keyingi, kengroq bosqichida asosiy ijtimoiy institut sifatida faol ishtirok etadi. Shu bois oila va maktabning o'zaro hamkorligi nafaqat ta'lim-tarbiyaning sifatini belgilaydi, balki bolaning jamiyatga integratsiyalashuv darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashuv, texnologiyalarning keskin rivojlanishi va madaniy qadriyatlarning o'zgarishi sharoitida farzand tarbiyasining murakkablashib borayotgani kuzatiladi. Shu sababli oila va maktabning integratsiyalashgan pedagogik faoliyati nafaqat zarur, balki majburiy ehtiyoj bo'lib bormoqda. Bolaning emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyalari, mustaqilligi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi - ularning barchasi ko'p jihatdan oilaviy muhit va maktab tarbiyasi uyg'unligiga tayanadi.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yosh avlodning komil, ijtimoiy faol va ongli shaxs sifatida shakllanishiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishi esa ikki muhim institut - oila va maktabning uzviy hamkorligi orqali ta'minlanadi. Oila bolaga dastlabki ijtimoiy tajribani beradigan asosiy muhit bo'lib, unda shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori, qadriyatlari, emotsional barqarorligi shakllanadi. Maktab esa yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini kengaytiruvchi, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylantiruvchi tizimli muhitdir. Shu bois oila va maktabning hamkorligi bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Oila - bolaning ijtimoiylashuvi boshlanadigan birlamchi muhit bo'lib, unda farzandning xarakteri, axloqiy qarashlari, emotsional barqarorligi va o'zini tutish me'yorlari shakllana boshlaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, oilaviy tarbiya jarayonidagi psixologik muhit bolalarning kelgusidagi ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1]. Oila bola ijtimoiylashuvining birlamchi muhiti sifatida uning xarakteri, muloqot ko'nikmalari, o'ziga bo'lgan ishonchi va emotsional holatini shakllantiradi. Sotsiolog U. Bronfenbrenner oila inson shaxsiyati rivojlanishida asosiy mikro-muhit ekanini ta'kidlaydi. Aynan oilada bola jamiyatning dastlabki me'yorlarini, axloqiy qadriyatlarini, rollar tizimini o'zlashtiradi. Demokratik muhit hukmron bo'lgan oilalarda bolalarning ijtimoiy faollik darajasi yuqori bo'lib, ular maktab jamoasiga tez va oson moslashadi. Aksincha, avtoritar yoki befarq oilalarda tarbiyalangan farzandlarda ijtimoiy moslashuv jarayoni sekinlashadi, ularda o'zini boshqalar oldida erkin tutish yoki mustaqil fikr bildirish malakalari yetishmasligi mumkin. Bundan tashqari, noto'liq oilalarda ulg'aygan yoki ota-onasi chet elga ishlashga ketgan farzandlarning emotsional ehtiyojlari yetarlicha qondirilmagani sababli, maktabdagi ijtimoiy moslashuv jarayonida qiyinchiliklar kuzatilishi ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Maktab esa bolani keng jamoa bilan tanishtiradigan, uning

kommunikativ malakalarini rivojlantiradigan, ijtimoiy rollarni o'rgatadigan asosiy makondir. Maktabda bola o'qituvchi, tengdoshlar, jamoa, sinf rahbari kabi turli ijtimoiy agentlar bilan munosabat o'rnatadi. Bu jarayonda muloqot madaniyati, tartib-intizom, mas'uliyat, hamkorlik, nizolarni boshqarish kabi ko'nikmalar shakllanadi. O'qituvchi shaxsi esa bolaga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy faktor sifatida tan olinadi. O'qituvchining pedagogik mahorati, madaniyati, muloqot uslubi, bola bilan bo'lgan munosabatidagi samimiylik bolalarning psixologik holati va jamoaga moslashuviga bevosita ta'sir qiladi. J. Dewey pedagogika tizimida oila, maktab va jamiyatni yagona tarbiya makoni sifatida talqin qilib, ularning integratsiyasi bolani hayotga tayyorlashning asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi [2].

Oila va maktab hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun yagona pedagogik makon yaratadi. Hamkorlikning mazmuni pedagoglar va ota-onalarning birgalikda maqsad belgilashi, bola shaxsiga oid axborot almashuvi, ta'lim-tarbiya jarayonining izchil va uyg'un olib borilishi bilan belgilanadi. Oila va maktab o'rtasidagi muntazam aloqalar tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi, bolaning ikki muhitdagi talablarni uyg'un qabul qilishi uchun zamin yaratadi. Agar ota-onalar maktabdagi pedagogik jarayonlar haqida muntazam xabardor bo'lsa, farzandining o'qishi, xulq-atvori, ijtimoiy faolligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi va tarbiyadagi yo'nalishlarni aniq belgilay oladi. Bunday hamkorlik bolaning maktab jamoasidagi o'rnini mustahkamlaydi, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi, o'qish motivatsiyasini oshiradi va o'ziga ishonchini kuchaytiradi. Oila va maktab hamkorligining samarali shakllariga otaonalar yig'ilishlari, individual suhbatlar, maktab psixologi bilan uchrashuvlar, seminar-treninglar, maktab tadbirlarida ota-onalarning ishtiroki, elektron kommunikatsiya vositalari orqali muntazam axborot almashinuvi kiradi. Ayniqsa, bugungi raqamli jamiyatda elektron kundaliklar, messenjerlar, mobil ilovalar orqali pedagog va ota-onalar o'rtasidagi muntazam aloqa bolalarning ijtimoiy moslashuvi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, maktab psixologining oilalar bilan ishlashi, ijtimoiy moslashuvda muammolar bo'lgan bolalar uchun individual dasturlar tuzishi ham alohida ahamiyatlidir.

Hamkorlikning ijtimoiy natijalari ham muhimdir. Tadqiqotchi J. Epsteinning xulosalariga ko'ra, oila va maktab hamkorligi yuqori bo'lgan maktablarda bolalarning o'qishga munosabati yaxshilanadi, ular jamoaga tezroq moslashadi, muloqot qobiliyati rivojlanadi, o'z-o'ziga bahosi ko'tariladi va konfliktlar kamayadi. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bola rivojlanishi "yaqin rivojlanish zonasi" doirasida kattalar yordamiga tayanadi. Demak, ota-onalar va o'qituvchilarning qo'shma faoliyati bu jarayonni yanada tezlashtiradi. Shu bilan birga, bugungi real tajribada oila va maktab hamkorligida bir qator muammolar mavjud: otaonalarining bandligi, pedagogik madaniyatning yetarli emasligi, mas'uliyatsizlik, maktab bilan aloqa

sustligi, oilaviy tarbiya uslublarining o'qituvchi yondashuvlari bilan nomuvofiqligi, migrant oilalardagi psixologik bo'shliq va bolalarning ijtimoiy-emosional ehtiyojlarining yetarli qondirilmasligi kabi holatlar bunga misol bo'la oladi. Ushbu muammolar bolalarning jamoadagi moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, ularning o'qishga bo'lgan munosabatida salbiy o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Biroq hamkorlik jarayonida ayrim qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Otaonalarining bandligi, pedagogik savodxonlikning yetarli emasligi, oiladagi psixologik muammolar, migratsiya tufayli ajralishlar, maktab-oila o'rtasidagi muloqotning sustligi kutilgan natijalarning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qiladi.

Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida oila bilan ishlash bo'yicha yangicha yondashuvlar, psixologik-pedagogik qo'llanmalar, treninglar va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish zaruratini oshiradi. Shu bilan birga, oila va maktabning o'zaro hurmat, mas'uliyat, hamjihatlik va ochiq muloqot tamoyillariga asoslangan hamkorligi o'quvchilarda quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlashi tadqiqot orqali tasdiqlandi. Ijtimoiy moslashuv qobiliyatining ortishi - bola jamoada o'z o'rnini topadi, o'z fikrini erkin yetkazadi, jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etadi. Emotsional barqarorlikning kuchayishi - bola o'zini xavfsiz his qiladi, stressga bardoshlilik ortadi, o'quv faoliyati va muloqot jarayonida ijobiy kayfiyat namoyon bo'ladi. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi - tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar kamayadi, bolada ledyerlik, hamkorlik va murosaga kelish qobiliyatlari shakllanadi. O'qishga bo'lgan motivatsiyaning oshishi - oila tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini his qilgan bola maktabga ijobiy munosabatda bo'ladi. Xulq-atvor me'yorlari barqarorlashuvi - bola o'z harakitlarining chegarasini anglaydi, mas'uliyat hissi kuchayadi.

Xulosa

Oila va maktabning hamkorlikdagi faoliyati bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim va hal qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, bola shaxsining shakllanishi uzluksiz jarayon bo'lib, uning ilk bosqichlari oilaviy tarbiya muhitida, keyingi bosqichlari esa maktab va keng jamoa hayotida ro'y beradi. Shu sababli bola ijtimoiylashuvining har bir pog'onasida oila va maktabning bir-birini to'ldiruvchi va uyg'unlashtirilgan faoliyati zarurdir. Oila bolaga dastlabki ijtimoiy tajribani beradi, unda shaxsning xarakteri, fe'l-atvori, emotsional barqarorligi, muloqot ko'nikmalari, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy me'yorlarga munosabati shakllanadi. Maktab esa mazkur tajribalarni jamiyat miqyosida boyituvchi, kengaytiruvchi va mustahkamlovchi ijtimoiy institutdir. Oila talablari bilan maktab talablari bir-biriga mos kelgan sharoitdagina bolaning psixologik barqarorligi, o'zligini anglash jarayoni, jamoaga qo'shilish tezligi yuqori bo'ladi. Aksincha, o'zaro nomuvofiqlik bo'lgan muhitda bola o'zini noqulay his qiladi, uning ijtimoiy moslashuvi sekinlashadi, tengdoshlar bilan munosabati va

o'qishga bo'lgan munosabati salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila-maktab hamkorligi bir martalik tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki uzviy, tizimli va maqsadli jarayon sifatida shakllanishi lozim. Hamkorlikning samarali yo'llariga ota-onalar yig'ilishlari, muntazam individual suhbatlar, psixologik maslahatlar, sinf va maktab tadbirlarida ota-onalarning faol ishtiroki, elektron platformalar orqali doimiy aloqa o'rnatish, o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va loyihalar kiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari oila va maktab o'rtasidagi masofani qisqartirib, pedagogik muloqotni yengillashtirmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oila va maktabning hamkorligi bola shaxsining ijtimoiy, psixologik, axloqiy va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur hamkorlik faqat tarbiyaviy zarurat emas, balki ijtimoiy barqarorlik, sog'lom avlodni kamol toptirish va jamiyatning taraqqiyotini ta'minlashning eng muhim pedagogik shartidir. "Oila-maktab-jamiyat" tizimi birgalikda faoliyat olib borgandagina yosh avlodning har tomonlama kamol topgan, ijtimoiy faol, ma'suliyatli va barkamol shaxs sifatida voyaga yetishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2016 yil)
2. Oila va jamiyatda bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish bo'yicha Milliy dastur" (2019 yil)
3. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga doir milliy strategiya" (2023 yil)
4. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
5. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil
6. M.G.Davletshin . Yosh davrlari va pedogogik psixologiya. T.2004
7. V.Karimova. Oila psixologiyasi.T.2007
8. E.G. G'oziyev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019 y 1-kitob.
9. Karimova V., Qurbonova D. Oilapsixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
10. Dewey J. DemocracyandEducation. – New York: Macmillan, 1916
11. Boymirzayeva, D. M. Q. (2025). Inkluziv ta'limda qo'llaniladigan metod va usullar samaradorligi. Science and Education, 6(2), 176-181.
12. Siddiqov, A. M. O. G. L., & Boymirzayeva, D. M. Q. (2025). Inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishda qollaniladigan metod va usullar. Science and Education, 6(2), 206-209.
13. Kamolova, A. O. Q., Rafikova, R. A. va Nexochina, L. S. (2025). Mariya Montessori metodikasining pedagogik-psixologik asoslari va uning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati. Fan va ta'lim , 6 (12), 517-520.
14. Rafikova, R. A., & Kamolova, A. O. K. (2025). Fanlararo aloqalar va ularning STEAM ta'limidagi ahamiyati. Fan va ta'lim , 6 (12), 798-804.

15. Siddiqov, A. M. G. L., & Boymirzayeva, D. M. Q. (2025). Inkly ta'limni oshirishniva qo'yilgan metod va usullar. Fan va ta'lim , 6 (2), 206-209.
16. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2026). Korreksion pedagogika asosida inklyuziv ta'limni tashkil etish. YANGI RENESSANS, 3(1), 3-8.
17. Muhammadjonova, D. O. Q., & Siddiqov, A. M. G. L. (2025). O ' qituvchilarning pedagogik faoliyatlarida ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi pedagogik va sudlanuvchi. Fan va ta'lim , 6 (5), 330-334.